



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



## NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2024- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*


*Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 21 005 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 18 619 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 94,7 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 93,7 foiz) tashkil etdi.


## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar (1-sentabr holatiga)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(2024- yil yanvar-avgust holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 248 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 79,9 foizni tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 544 ta, xususi korxonalar soni 353 ta va oilaviy korxonalar soni 283 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Navoiy sh.	544	Zarafshon sh.	143
Karmana t.	292	Nurota t.	107
Qiziltepa t.	255	Uchquduq t.	89
Navbahor t.	237	Tomdi t.	85
Xatirchi t.	217	G'ozg'on sh.	65
Konimex t.	214		

(2024- yil 1- sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)Yillar kesimida o'sish sur'ati  
(foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2024- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 21 005 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,0 foiz, sanoat – 13,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,6 foiz, qurilish – 5,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, boshqa turlari – 19,9 foiz.


Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	4 882	Zarafshon sh.	1 361
Karmana t.	3 116	Konimex t.	1 025
Qiziltepa t.	2 826	Uchquduq t.	830
Xatirchi t.	2 426	Tomdi t.	584
Navbahor t.	2 096	G'ozg'on sh.	451
Nurota t.	1 408		


# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil yanvar-avgust holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.



2024- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 180 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 174 ta;
- yirik korxonalar 6 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	514	Zarafshon sh.	136
Karmana t.	288	Nurota t.	103
Qiziltepa t.	248	Uchquduq t.	86
Navbahor t.	235	Tomdi t.	83
Xatirchi t.	214	G'ozg'on sh.	62
Konimex t.	211		

(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)Yillar kesimida o'sish sur'ati  
(foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-sentabr holatiga 8 712 taga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,7 foiz, sanoat – 14,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,8 foiz, qurilish – 6,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,8 foiz.


Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	4 262	Nurota t.	1 219
Karmana t.	2 854	Konimex t.	892
Qiziltepa t.	2 583	Uchquduq t.	709
Xatirchi t.	2 134	Tomdi t.	500
Navbahor t.	1 917	G'ozg'on sh.	415
Zarafshon sh.	1 227		




(2024- yil yanvar-avgust holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,4 foiz, sanoat – 18,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,4 foiz, qurilish – 3,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,4 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 3,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,3 foiz.

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Navoiy sh.	509	Zarafshon sh.	136
Karmana t.	288	Nurota t.	103
Qiziltepa t.	248	Uchquduq t.	86
Navbahor t.	235	Tomdi t.	83
Xatirchi t.	213	G'ozg'on sh.	62
Konimex t.	211		

(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni  
(birlikda)



Yillar kesimida o'sish sur'ati  
(foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (22,7 foiz), Karmana (15,3 foiz), Qiziltepa (13,9 foiz), Xatirchi (11,4 foiz) va Navbahor (10,3 foiz), Zarafshon shahri (6,6 foiz), Nurota (6,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	4 223	Nurota t.	1 214
Karmana t.	2 843	Konimex t.	883
Qiziltepa t.	2 579	Uchquduq t.	706
Xatirchi t.	2 128	Tomdi t.	497
Navbahor t.	1 913	G'ozg'on sh.	413
Zarafshon sh .	1 220		




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Hududlar kesimida soni  
(birlikda)

Navoiy sh.	182
Zarafshon sh.	23
G‘ozg‘on sh.	14
Konimex t.	351
Qiziltepa t.	245
Navbahor t.	299
Karmana t.	303
Nurota t.	335
Tomdi t.	187
Uchquduq t.	43
Xatirchi t.	255


Yillar kesimida soni  
(birlikda)



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



(2024- yil 1-sentabr holatiga)


**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Navoiy sh.	627
Zarafshon sh.	209
G'ozg'on sh.	234
Konimex t.	75
Qiziltepa t.	291
Navbahor t.	209
Karmana t.	446
Nurota t.	198
Tomdi t.	72
Uchquduq t.	120
Xatirchi t.	281

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)

Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni 79,2 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan - 89,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,8 foizni tashkil etdi), 7,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,2 foizni tashkil etdi), 2,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,4 foizni tashkil etdi) va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi) tashkil etgan.




(2024- yil 1-sentabr holatiga)

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	374
Zarafshon sh.	89
G'ozg'on sh.	16
Konimex t.	31
Qiziltepa t.	187
Navbahor t.	111
Karmana t.	216
Nurota t.	80
Tomdi t.	26
Uchquduq t.	26
Xatirchi t.	69

## Yillar kesimida soni (birlikda)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 50,4 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,7 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,8 foizni tashkil etdi.

194



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

414

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

617


Bino va  
inshootlar qurish



(2024- yil 1-sentabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Navoiy sh.	1 784
Zarafshon sh.	459
G'ozg'on sh.	104
Konimex t.	208
Qiziltepa t.	1 350
Navbahor t.	1 018
Karmana t.	1 184
Nurota t.	343
Tomdi t.	158
Uchquduq t.	306
Xatirchi t.	1 072

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 974 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,9 foizni tashkil etdi.

**705**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**1 563**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**5 718**


Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo



(2024- yil 1-sentabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Navoiy sh.	274
Zarafshon sh.	186
G'ozg'on sh.	6
Konimex t.	51
Qiziltepa t.	152
Navbahor t.	60
Karmana t.	193
Nurota t.	57
Tomdi t.	16
Uchquduq t.	92
Xatirchi t.	155

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)

2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 9,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 90,2 foiz ulushini tashkil etdi.

122

Yashash bo'yicha  
xizmatlar

1 120

Oziq- ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar

(2024-yil 1-sentabr holatiga)


## Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Navoiy sh.	95
Zarafshon sh.	21
G'ozg'on sh.	8
Konimex t.	9
Qiziltepa t.	37
Navbahor t.	22
Karmana t.	56
Nurota t.	9
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	16
Xatirchi t.	33

## Yillar kesimida soni


(birlikda)



2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,9 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 38,3 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,2 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 45,8 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,9 foizni tashkil etdi.





(2024- yil 1-sentabr holatiga)


## Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Navoiy sh.	142
Zarafshon sh.	39
Gʻozgʻon sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	24
Navbahor t.	20
Karmana t.	40
Nurota t.	9
Tomdi t.	8
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	38

## Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 342 ta yoki 82,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

- 92,1 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 97,5 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 92,3 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,4 foizini tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 88,2 foizni tashkil etdi.

15

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

12




315

Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

(2024- yil 1-sentabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Navoiy sh.	203
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	3
Qiziltepa t.	151
Navbahor t.	49
Karmana t.	175
Nurota t.	11
Tomdi t.	8
Uchquduq t.	17
Xatirchi t.	62

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)

2024- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 92,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 99,1 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 78,6 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
(2024- yil 1-sentabr holatiga)

**Tadbirkorlik subyektlari soni**  
(birlikda)

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

(2024- yil yanvar-avgust holatiga )

Yillar kesimida soni  
(birlikda)


19,8 %

16,5 %

13,7 %

15,8 %

13,7 %



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	416	Zarafshon sh.	86
Karmana t.	211	Nurota t.	85
Qiziltepa t.	200	Uchquduq t.	81
Navbahor t.	148	Tomdi t.	42
Xatirchi t.	144	G'ozg'on sh.	8
Konimex t.	123		


## 2024- yil 1-sentabr holatiga

Yillar kesimida soni  
(birlikda)

Yillar kesimida o'sish sur'ati  
(foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2024- yil 1-sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 21 005 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 310 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi.

Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 38,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,2 foiz, sanoat – 13,2 foiz va qurilish – 8,6 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Navoiy sh.	3 010	Uchquduq t.	620
Qiziltepa t.	1 981	Zarafshon sh.	583
Karmana t.	1 716	Konimex t.	495
Navbahor t.	954	Tomdi t.	271
Xatirchi t.	873	G'ozg'on sh.	94
Nurota t.	713		



(2024- yil yanvar-avgust holatiga)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



**Xususiy korxon** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxon tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxon o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Konimex t.	78	Navoiy sh.	31
Navbahor t.	50	Qiziltepa t.	13
G'ozg'on sh.	48	Karmana t.	12
Tomdi t.	40	Nurota t.	5
Zarafshon sh.	39		
Xatirchi t.	37		




(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




2024- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 067 tani tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari shahar va tumanlar kesimi bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: Xatirchi (18,6 foiz), Navoiy (15,1 foiz), Zarafshon (12,7), Navbahor (11,3 foiz), Karmana (9,8 foiz), Qiziltepa (7,6 foiz), Nurota (6,5 foiz), G'ozg'on (6,7 foiz), Konimex (5,8 foiz), Tomdi (4,7 foiz), Uchquduq (1,2 foiz) shahar va tumanlar tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Xatirchi t.	755	G'ozg'on sh.	274
Navoiy sh.	615	Nurota t.	265
Zarafshon sh.	516	Konimex t.	235
Navbahor t.	460	Tomdi t.	190
Karmana t.	398	Uchquduq t.	50
Qiziltepa t.	309		

(2024- yil yanvar-avgust holatiga)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	67	Konimex t.	10
Karmana t.	65	Zarafshon sh.	11
Navbahor t.	37	G'ozg'on sh.	6
Qiziltepa t.	35	Uchquduq t.	5
Xatirchi t.	33	Tomdi t.	1
Nurota t.	13		

(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-sentabr holatiga 3 212 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Karmana t.	732	Konimex t.	151
Navoiy sh.	594	Zarafshon sh.	124
Xatirchi t.	485	G'ozg'on sh.	45
Navbahor t.	498	Uchquduq t.	36
Qiziltepa t.	287	Tomdi t.	35
Nurota t.	225		

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


(2024- yil yanvar-avgust holatiga )

Yillar kesimida soni (birlikda)

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	21	Zarafshon sh.	1
Konimex t.	7	Nurota t.	1
Karmana t.	4	Navbahor t.	1
Xatirchi t.	2		

(2024- yil 1-sentabr holatiga)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Yetakchi o'rinni 50 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,5 foiz), Eron Islom (7,5 foiz), Turkiya (ulushi 8,8 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 7,1 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	79	Qiziltepa t.	9
Karmana t.	57	Navbahor t.	8
Konimex t.	21	Tomdi t.	6
Xatirchi t.	15	G'ozg'on sh.	6
Nurota t.	10	Uchquduq t.	3
Zarafshon sh.	12		

*2024- yil yanvar-avgust holatiga, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.



(2024- yil 1-sentabr holatiga, birlikda)



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 94 tasi qo'shma korxonalar, 132 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*(2024- yil 1-sentabr holatiga, birlikda)*

xorijiy korxonalar		qo'shma korxonalar
<b>40</b>	Navoiy shahri	<b>39</b>
<b>8</b>	Zarafshon shahri	<b>4</b>
<b>3</b>	G'ozg'on shahri	<b>3</b>
<b>17</b>	Konimex tumani	<b>4</b>
<b>3</b>	Qiziltepa tumani	<b>6</b>
<b>5</b>	Navbahor tumani	<b>3</b>
<b>37</b>	Karmana tumani	<b>20</b>
<b>7</b>	Nurota tumani	<b>3</b>
<b>2</b>	Tomdi tumani	<b>4</b>
<b>1</b>	Uchquduq tumani	<b>2</b>
<b>9</b>	Xatirchi tumani	<b>6</b>

(2024- yil 1-sentabr holatiga, birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi

Tel.:79.223.62.47